



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning

20__ - 20__ - o'quv yiliga 5 – sinf
adabiyot fanidan III chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 5-adabiyot fanidan III chorak taqvimiy mavzu rejası

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
III chorak				
1.	Alisher Navoiy. “Sher bilan Durroj” hikoyati (“Hayrat ul-abror” dostonidan)	1		
2.	Alisher Navoiyning “Hotami Toy” hikoyati (“Hayrat ul-abror” dostonidan)	1		
3.	Alisher Navoiyning “Qanoatli va qanoatsiz do‘st” (“Hayrat ul-abror” dostonidan)	1		
4.	Nodar Dumbadze. “Hellados” hikoyasi (1-qism)	1		
5.	Nodar Dumbadze. “Hellados” hikoyasi (2-qism)	1		
6.	Mutolaadan so‘ng	1		
7.	Bobur. Ruboiylar (1-3-ruboiylar: “Yod etmas emish..”, “Tole yo‘qi...”, “Ko‘pdin berikim...”)	1		
8.	Tadqiq qiling!	1		
9.	Bobur ruboiylari. 4-6-ruboiylar: “Har kimki...”, “Ko‘ngli tilagan...”, “Kim bor anga...”	1		
10.	Nazorat ishi – 5	1		
11.	Erkin Vohidov. “Tandir haqida ertak” she’ri	1		
12.	“Matmusaning tandiri”, “Tandir kiygan Matmusa” hajviyalari	1		
13.	Erkin Vohidovning “Matmusaning tandiri”, “Tandir kiygan Matmusa” hajviyalari	1		
14.	Ridyard Kipling. “Maugli” asaridan parcha: “Mauglining birodarlari” (1-qism)	1		
15.	Ridyard Kiplingning “Maugli” asaridan parcha: “Mauglining birodarlari” (2-qism)	1		
16.	Ridyard Kiplingning “Maugli” asaridan parcha: “Yo‘lbars, yo‘lbars”	1		
17.	Tadqiqot o‘tkazamiz	1		
18.	Choraklik loyiha ishi	1		
19.	Nazorat ishi – 6	1		
20.	Takrorlash, mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Alisher Navoiy. “Sher bilan Durroj” hikoyati (“Hayrat ul-abror” dostonidan)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarni) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda mustaqil o‘qib-o‘rganish, o‘z-o‘zini rivojlantirish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

vatanni sevish, tengdoshlari va boshqa insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotda tug ilgan. Kitob o‘qish Alisherning sevimli mashg‘ulotlaridan bo‘lgan. Bu haqda shoirning o‘zi “Lison ut-tayr” dostonida bunday xotirlaydi: “Hech esimdan chiqmaydi: maktabda o‘qib yurgan paytlarim edi... Muallim xotiramizni mustahkamlash, zehnimizni o‘tkirlash va savodimizni ravon qilish uchun she’r-u dostonlar o‘qitar, yod oldirar edi. Ba’zan nasriy “Guliston”ni mutolaa qilsak, goho “Bo’ston” kabi she’riy asarlarni o‘qir edik. Men ayniqsa Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga alohida mehr qo‘ydim. Bu asarni takror-takror o‘qir edim”1. Navoiy turkiy va forsiyda birdek ijod qilib, ko‘plab nazmiy, tarixiy va ilmiy asarlaryozgan. Ular o‘zbek va jahon adabiyoti xazinasining eng nodir namunalari hisoblanadi. Alisher Navoiy 1501-yili vafot etgan.



Alisher Navoiy va sulton Husayn Boyqaro.
Rassom: N. Qo'ziboyev

Tanishing: ALISHER NAVOIY

Mutolaadan oldin...

Biz siz bilan Alisher Navoiy qalamiga mansub “Xamsa” dostonlarining birinchisi - “Hayrat ul-abror”dan olingan hikoyatlar bilan tanishamiz. “Hayrat ul-abror” yaxshi kishilarning hayratlanishi deganidir.

Qachondir yolgʻon gapirganmisiz? Nima uchun? Rost gapirish osonmi yoki yolgʻon gapirish? Nima uchun?

Sher va durroj (hikoyat)1

Durrojning yolgʻonni chin oʻrnigʻa ayturidin hodisa domigʻa tushgonida chin soʻzni sher yolgʻon sogʻinib, faryodigʻa yetmagoni va ani balo domidin xalos etmagoni Qirgʻovulning chin gapihsh oʻrniga yolgʻon gapirib, bir falokat tuzogʻiga ilingani, chin soʻzni sheryolgʻon deb oʻylab, ovozini eshitib, yetib kelmagani va uni balo tuzogʻidan xalos etmagani

Asi matn

Bor edi bir beshada bir tund sher,
Vahshat aro koʻk asadidek dalər. Ъ .
Chun boʻlur erdi bolalab zavqnok,
Moʻr bolasin qilur erdi halok.
Tishlabon ul moyayi payvandini,
Ogʻzida asrar edi farzandini.
Bor edi durroje oʻshul beshada,
Sheri jayon vahmidin andeshada.
Sherki, tishlab bolasin dam-badam,
Beshada har yon qoʻyar erdi qadam.
Yetgach aning boshi uza nogahon,
Far eta uchsa edi ul notavon,
Vahm ila seskanmak oʻlub sher ishi,
Oʻlturur erdi bolasigʻa tishi.
Tish bila aylab bolasi yorasin,
Yora etib oʻz jigari porasin.
Doim anga bu gʻam aro gʻam edi,
Cam neki, motam uza motam edi.
Koʻngli bu ishdin boʻlub ozorliq,
Boshladi durroj bila yorliq.
Dediki: “Mendin sanga yoʻq qasd-u kiyn,
Emin oʻl-u bil meni dogʻi amin.
Vahmni qoʻy, hamdam-u hamrozim oʻl,
Aysh-u tarab vaqti navosozim oʻl.
Men dogʻi lahning eshitib shod oʻlay,
Nagʻmang ila qaygʻudin ozod oʻlay.

Nasriy bayoni

Toʻqayda bir yirtqich sher bor edi.
Vahshatda osmon sheridek qoʻrqmas edi.
U bolalari bilan oʻynab, zavqqa toʻlganida
chumolilar uning bolasini talab qiynardi.
U oʻzining ajralmas bu boyligi - farzandini ogʻzida
tishlab asrar edi.
Oʻsha toʻqayda bir qirgʻovul ham boʻlib, bu yirtqich
sherning vahimasidan doim qoʻrquvda edi.
Sher boʻlsa, bolasini ogʻzida tishlab, dam-badam
toʻqayning goh u yogʻiga, goh bu yogʻiga borardi.
Shoʻrlik qush uning tepasida nogahon parr
etib uchsa,
sher qoʻrqqanidan seskanib, bolasiga ham botib
ketardi.
Tishi bilan oʻz bolasini, oʻz jigarporasini
yarador qilardi.
Doim bu unga gʻam ichida gʻam, gʻam ham emas,
motam ustiga motam edi.
Bu tashvishdan koʻngli ozor topib, qirgʻovul bilan
oʻrtoq boʻla boshladi.
U dedi: “Mening senga hech qanday qasdim,
dushmanligim yoʻq. Xotirjam boʻlib, meni oʻzingga
ishonchli doʻst deb bil.
Qoʻrqishni yigʻishtir, hamdamim, sirdoshim boʻl,
aysh va xursandlik vaqti birga kuylashadiganim boʻl.
Men ham sening kuylaringni eshitib, shod boʻlay,
nagʻmalaring bilan qaygʻudan ozod boʻlay.

Shart bukim, yetsa gazande sanga,
 Solsa falak hiylasi bande sanga,
 Lutf qo'lin holingga hamdast etay,
 Xasmni bir panja bila past etay.
 Ko'rguzub ixlos ishida ixtisos,
 Seni aduv domidin aylay xalos".
 Sher ko'p afsun bila chun qildi jahd,
 Sidq ila durroj dog'i qildi ahd.
 Andoq aro yerda ayon bo'ldi mehr,
 Kim hasad eltur edi andin sipehr.
 Qaydaki orom tutub sharza sher,
 Girdida durroj uchubon daler,
 Boshig'a parvoz ila gardish namoy,
 O'ylaki sulton boshi uzra humoy.
 Sher eshitib aning ilhonini,
 Fahm qilib savtida yolg'onini,
 Der edi: "Yolg'on demakim, shum erur,
 Kizb tuz el ollida mazmum erur".
 Pand eshitmas edi durroji mast,
 Kizbdin etmas edi afg'onni past.
 Bir kun aning qasdig'a bir saydgar,
 Hodisa domin yoyib erdi magar.
 Dona bila suv sari qilg'och xirom,
 Tortti sayyod aning ustiga dom.
 Qichqiribon dom aro ul muftalo,
 Necha dedi: "Tot! Meni tuttilo!"
 Sher qulog'ig'a yetib ul maqol,
 Savtini doyimg'idek etti xayol,
 Ko'p eshitib erdi bu yolg'onini,
 Uyla gumon etti chin afg'onini.
 Har nechakim rostfig'on ayladi,
 Sidqini ham kizb gumon ayladi.
 Maxlasig'a aylamadi iltifot,
 Toki anga munqati o'ldi hayot.
 Har kishikim rostni bexost der,
 Aytsa yolg'on, dog'i el rost der.
 So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
 Rost navo nag'mag'a tahsin degil..

Shart shuki, senga bir ziyon yetsa,
 falak seni hiyla bilan tuzoqqa tushirsa,
 marhamat qo'lini senga yordam uchun cho'zay,
 bitta panjam bilan dushmanni yerga teng qilay.
 Sadoqat masalasida o'zimni ko'rsatib, seni yov
 tuzog'idan xalos aylay".
 Sher ko'p sehr bilan o'z fikrini tushuntirishga
 tirishdi, qirg'ovul ham sadoqatli bo'lishga ahd qildi.
 Oralarida bir-birlariga shunday muhabbat paydo
 bo'ldiki, bunga osmonning o'zi ham hasad qilardi.
 Qayerda yirtqich sher dam olib yotsa, atrofida
 qirg'ovul bemalol uchib yurardi.
 Sultonning tepasida humo qushi aylanganday, sher
 boshida qirg'ovul aylanib parvoz qilardi.
 Sher uning sayrashini eshitib, kuyida yolg'on
 borligini fahm qilib,
 der edi: "Yolg'on gapirma, yomon bo'ladi.
 To'g'ri odamlar oldida yolg'on qoralanadi".
 Qirg'ovul pandni eshitmas, o'zi bilan o'zi mast,
 ataylab fig'onini hech pasaytirmas edi.
 Bir kuni bir ovchi uni tutish uchun o'z tuzog'ini
 yoygan edi.
 U don bilan suvni ko'rib, oldiga borgach, ovchi
 uning ustiga to'rni tashladi.
 Tuzoqda u baxtsiz qichqirib, bir necha bor: "Dod,
 meni tutdilar!" - dedi.
 Bu so'z sher qulog'iga eshitildi, lekin uning bu no-
 lasini har galgidek yolg'on deb o'yladi.
 Bunaqa yolg'onlarni ko'p eshitgani uchun chin
 qichqirig'ini ham yolg'on deb gumon qildi.
 U har qancha rostakamiga qichqirmasin, sher rosti-
 ni ham yolg'on deb hisobladi.
 Uni qutqarish uchun iltifot ko'rsatmadi, natijada
 uning hayoti qirg'ildi.
 Kimki beixtiyor rost gapirsa, yolg'onini ham
 xaloyiq rost deydi. So'zda, Navoiy, nima desang
 ham rostini gapir, haqiqatni kuylagan ohanglarga
 tahsin ayt..

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Hayvonlar shohi bo'lgan sherning harakatlarida ota-onalar;
2. Siz-u biz o'qigan ertaklarda sher hayvonlar shohi, o'rmon qiroli sifatida tasvirlan- gan. Shundan kelib chiqib ayting-chi, ushbu hikoyatda sherdurroj bilan kelishib o'tirmasdan, uni qo'rqitib qo'ya qolsa bo'lmasmidi? Javobingizni aniq misollar bilan asoslang.
3. O'ylab ko'ring: nima uchun durroj ogohlantirishlarga qaramas, yolg'on gapirishni hech to'xtatay demasdi?
4. Durroj nima uchun qurbon bo'ldi deb o'ylaysiz: nafs tufaylimi yoki yolg'onchiligi sabablimi? Yoki boshqa javobingiz bormi? Fikringizni asoslang.
5. Durrojning o'limi sherning keyingi hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaysiz? Taxminingizni izohlang.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish:

"Yolg'on kulfat keltiradi" mavzusida ijodiy matn yozib keling.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Alisher Navoiyning “Hotami Toy” hikoyati (“Hayrat ul-abror” dostonidan)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

kutubxonalardan qiziqarli badiiy kitoblarni topa olish, ulardan foydalanish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

oila, maktab, mahallada bo‘layotgan jarayonlarda faol ishtirok etish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

“Hayrat ul-abror” dostonining mashhur hikoyatlaridan biri “Hotami Toy”dir. Hikoyat bosh qahramoni Hotami Toy tarixiy shaxs, Yamandagi Toy qabilasining boshlig i bo‘lgan.

Saxiyligi va oliyjanoblighi bilan Sharq xalqlari orasida dovuq qozongan. Natijada uning nomi badiiy asarlarda saxovatpeshalik, himmat ramziga aylangan.

Hotami Toy
(hikoyat)

Hotami Toy hikoyatikim, himmat va saxo ahlig‘a peshvo erdi va aning mehmonlig‘i ta‘zimig‘a bosh indurmagan gado himmatini ko‘rub insof berdi Hotami Toy hikoyasiki, u

himmat va saxovat kishilariga peshvo edi; uning mehmondorchiligiga ta'zim bilan bosh urmagan birgadoning himmatini ko'rib, Hotami Toyning unga tan bergani

Asl matn	Nasriy bayoni
<p>Hotami Toyig'a bir ozodavash Dediki: "Ey himmating ozoda kash, Toki saxo bo'ldi kafing varzishi, Ko'rdung ekinmu bir o'zungdek kishi?"</p> <p>Dediki: "Bir kun qilibon jashni om, Indab edim bodiya ahlin tamom. Matbax aro yuz teva qurbon edi, Qo'y-u qo'zi behad-u poyon edi. Bazm ichidin dasht sori bir nafas, Kasbi havo aylamak ettim havas. Sayrda ko'rdu bir asiri mihan, Bir quchoq orqasig'a yuklab tikan. Jismi uyin aylabon ul yuk nigun, Tirkabon ul uyga asodin sutun.</p>	<p>Hotami Toyga bir ko'ngli ochiq odam dedi: "Ey himmatda erkin tabiat kishi, saxiylik kaftingga odat bo'lganidan buyon o'zingga o'xshagan kishini hech ko'rdingmi?"</p> <p>U dedi: "Bir kuni men hamma uchun yig'in qildim. Unga o'sha cho'ldagi odamlarning hammasini chaqirdim. Pishirish uchun yuzta tuya qurbon qilindi; so'yilgan qo'y-qo'zilarning ham son-sanog'i yo'q edi. Bazm bo'lib turgan vaqtda birpas havo olgim kelib, dasht tomonga chiqdim. Aylanib yurib, mehnatda ezilgan bir qari cholni ko'rdim. U yelkasiga bir quchoq tikan – o'tin ortgan edi. U yuk gavdasini egib, vujud uyiga hassadan ustun tirkagan edi.</p>
<p>Har qadam olg'uncha tinib muddate, Har nafas urg'uncha o'tub fursate. Soldi ul emgak o'ti ko'nglumga tob, Lutf-u tarahhum bila qildim xitob: "K-ey qadin emgak yuki past aylagan, Jismida g'am xori nishast aylagan, Dasht aro go'yoki xabar bilmading, Hotam uyi sori guzar qilmading? Da'vat etib asru farovon bukun, Qildi yomon-yaxshini mehmon bukun. Tashla tikan, gulshani izzatqa yet, Chekma mashaqqat, qo'p-u da'vatqa yet". Menda chu fahm etti bu nav iztirob, Bosh ko'tarib kuldi-yu berdi javob: "K-ey solibon hirs ayog'ingg'a band, Oz-u tama' bo'ynuga bog'lab kamand. Vodiyi g'ayratg'a qadam o'rmag'on, Kunguri himmatg'a alam urmag'on. Sen dog'i chekkil bu tikan mehnatin, Tortmag'il Hotami Toy minnatin. Bir diram olmoq chekibon dast ranj, Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj". Ulki bu yanglig' so'zi mavzun edi, Mendin aning himmati afzun edi". Himmat agar bo'lsa, Navoiy, sanga, Banda durur Hotami Toyi sanga...</p>	<p>Har qadam tashlaganida birpas to'xtar, har dam olganida ma'lum bir fursat o'tardi. U chekayotgan azob o'ti ko'nglimni yondirib, rahm- shafqat bilan unga bunday xitob qildim: "Ey qaddini mashaqqat yuki bukkani, tanasida g'am tikanlari o'rmashgan odam! Dashtda yurib xabaring bo'lmadimi? Nega Hotamning uyiga bormading? U hammani o'zining uyiga chaqirib, yaxshi-yu yomonni bugun mehmon qilmoqda-ku. O'tinni tashla, izzat gulshaniga bor, mashaqqat chekib o'tirmay, tur, chaqiriqqa bor!" U ahvolidan iztirob chekkanimni tushunib, bosh ko'tarib kuldi-yu bunday javob berdi: "Ey oyog'ini ochko'zlik band etgan, bo'yniga nafs va tama sirtmoq bog'lagan, g'ayrat vodiysiga qadam bosmagan, himmat qal'asiga bayroq tikmagan odam, sen ham bu tikan tashish azobini tortib ko'r, Hotami Toyning minnatini tortma. Qiyalib, mashaqqat bilan bir tanga topish birov bergan xazinadan yaxshiroqdir". Uning so'zlari shunday o'rinli ediki, shuning uchun ham uning himmati menikidan ortiq edi". Ey Navoiy, agar senda himmat bo'lsa, Hotami Toy ham senga quidir...</p>

- 1, Hotami Toy nega o'tinchi cholga o'zini tanishtirmadi? Bu orqali undagi yana qaysi fazilat namoyon bo'lyapti?
2. Choi nima uchun Hotami Toy ziyofatidan ko'ra o'tin terib tirikchilik qilishni afzal deb biladi? Siz o'tinchining o'rnida bo'lganingizda nima qilardingiz?
3. Cholning ta'nasi uni ziyofatga taklif qilganga qaratilganmi yoki ziyofatga borganlargami? Fikringizni asoslashga urining.
4. Hotami Toyning o'tinchi chol gaplaridan, Navoiyning esa Hotami Toy ishidan chiqargan xulosasiga munosabat bildiring.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining “Saxovat va himmat” bobida *isrof haqida* shunday yozadi:

“Isrof qilish saxiylik emas; o‘rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona deydilar, yorug‘joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermog‘ - o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini “saxiy” demoq - behayolik bilan nom chiqarmoq. Kim xalqqa ko‘rsatib eh son bersa, u pastkash, saxiy emas. Tilagandan so‘ng berish ham saxovatdan yiroqdir, qistash natijasida bergandan bermagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o‘zi yemay, hammasini muhtoj odamga berganni axiy, do‘st deb bil’.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Yuqoridagi fikrlarga munosabat bildiring. Saxiy va axiy o‘rtasidagi farqlami sanang.
2. Yuqoridagi fikrlardan so‘ng Hotami Toyning ziyofatni “o‘zini ko‘z-ko‘z qilish” uchun uyushtirmaganiga qanday dalillar keltira olasiz?
3. Matndan olingan quyidagi gapga diqqat qiling: “Bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o‘zi yemay, hammasini muhtoj odamga berganni axiy, do‘st deb bil”. Siz qaysi biri bo‘la olasiz: saxiy yoki axiy?
4. O‘qigan asar yoki ko‘rgan filmlaringizdan saxovatli va himmatli kishilar qilgan ishlarga misollar keltiring.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:

Hikoyatning asl matni va nasriy bayoni asosida lug‘at tuzing.

So‘zlar	Ma‘nosi
Ozodavash	ko‘ngli ochiq
***	***

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

69 listdan iborat adabiyot fanidan 5-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**